Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

TRANSCHEGARAVIY ZARAR YETKAZISHDAN KELIB CHIQADIGAN MAJBURIYATLARNING HUQUQIY MOHIYATI VA XALQARO XUSUSIY HUQUQDA TARTIBGA SOLINISHI

Mardonov Fazliddin Oybek o‘g‘li
Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: mardonovfayz@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.20028574

Annotatsiya: Ushbu maqolada transchegaraviy zarar tushunchasi, uning tarixiy shakllanishi, huquqiy tabiati va xalqaro huquqda tartibga solinishi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Transchegaraviy zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar delikt majburiyatlarning alohida ko'rinishi sifatida ko'rib chiqilib, ularning asosiy elementlari, turlari va huquqiy oqibatlari o'rganiladi. Maqolada Trail Smelter arbitraj ishi, Chernobil falokati, Kosmos 954 hodisasi kabi xalqaro amaliyotdagi muhim sud pretsedentlari va avariyalar tahlil qilinib, xalqaro huquq normalari bilan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi qoidalari uyg'unligi ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: transchegaraviy zarar, delikt majburiyat, xalqaro ekologik huquq, zarar yetkazmaslik tamoyili, Trail Smelter, fors-major, xalqaro javobgarlik, xalqaro xususiy huquq.

I. KIRISH

Zamonaviy xalqaro munosabatlar rivojlanishida davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy, ekologik va texnologik o'zaro bog'liqlik yanada chuqurlashib bormoqda. Bir davlat hududida amalga oshirilgan sanoat, texnologik yoki boshqa faoliyatlar natijasida boshqa davlat hududiga, atrof-muhitiga va fuqarolariga zarar yetkazilishi xalqaro huquqda transchegaraviy zarar tushunchasini yuzaga keltiradi. Mazkur tushuncha va undan kelib chiqadigan majburiyatlarning huquqiy mohiyati ilmiy hamda amaliy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi.

Globallashuv jarayonida sanoat va texnologik rivojlanish sur'atlari jadallashib, transchegaraviy ekologik muammolar ham kuchayib bormoqda. Bir tomondan, sanoat korxonalari, neft tanker kemalar va yadro inshootlarining ishi natijasida yuzaga keladigan ekologik falokatlar, ikkinchi tomondan, daryolar, ko'llar, havo va tuproqning ifloslanishi masalalari xalqaro huquqchilar va davlatlar uchun dolzarb muammolardan biriga aylangan.

Ushbu maqolaning maqsadi transchegaraviy zarar tushunchasining huquqiy mohiyatini ochib berish, uning tarixiy shakllanish bosqichlarini o'rganish va bunday zarardan kelib chiqadigan majburiyatlarning xalqaro va milliy huquqdagi o'rnini aniqlashdan iborat. Tadqiqot davomida taqqoslama-huquqiy, tarixiy-huquqiy va tizimli tahlil metodlaridan foydalanildi.

II. ADABIYOTLAR TAHLILI

Transchegaraviy zarar masalalari xalqaro huquq adabiyotlarida keng o'rganilgan. Xalqaro huquqshunos olima Xue Hanqin o'zining "Transboundary Damage in International Law" asarida transchegaraviy zararning kontseptual asoslarini chuqur tahlil qilib, uni bir davlatda yuzaga kelib, boshqa davlat hududiga ta'sir qiluvchi atrof-muhitga yetkazilgan zarar sifatida ta'riflaydi. Olimaning tadqiqoti xalqaro odat huquqi va konvension normalar o'rtasidagi munosabatni ham ochib beradi.

Huquqshunos olim J. Willisch "State Responsibility for Technological Damage in International Law" asarida texnologik faoliyatdan kelib chiqadigan transchegaraviy zararning uch asosiy turini — ifloslanish, kosmik faoliyat oqibatlari va yadroviy qurollar sinovi natijasidagi zararlarni tasniflab beradi.

Uning yondashuvi bu zararlarda ham xususiy shaxslar, ham davlat vakillari tomonidan amalga oshirilgan faoliyatning hisobga olinishi zarurligini ta'kidlaydi.

O'zbek huquqshunosligida X.R. Rahmonqulov majburiyat huquqi, T.O. Xazratqulov esa delikt majburiyatlarning kollizion masalalariga doir ilmiy asarlarida xalqaro xususiy huquq doirasidagi shartnomasiz majburiyatlarni keng tahlil qilgan. O'zbek huquqshunosi O.N. Sodiqovning fuqarolik huquqi bo'yicha darsligi ham zarur nazariy asos sifatida ishlatilgan.

Xalqaro normallar nuqtai nazaridan esa BMTning 2001-yilgi "Xavfli faoliyatlar natijasida yuzaga keladigan transchegaraviy zararlarning oldini olish to'g'risida"gi konvensiyasi, 1992-yilgi Helsinki konvensiyasi va 1963-yilgi Yadroviy qurol sinovlarini taqiqlash to'g'risidagi shartnoma muhim manba sifatida o'rganildi.

III. TRANSCHEGARAVIY ZARAR TUSHUNCHASI VA UNING ELEMENTLARI

3.1. Transchegaraviy zarar tushunchasining ta'rifi

Transchegaraviy zarar deganda bir davlat hududida shakllangan texnogen avariya yoki boshqa hodisa natijasida boshqa davlat yoki davlatlarning fuqarolari, atrof-muhiti va hayvonot olamiga yetkazilgan jiddiy zarar tushuniladi. BMTning 2001-yilgi konvensiyasi 2-moddasiga ko'ra, bu zarar asl kelib chiqqan davlatdan boshqa davlatning hududida yoki uning yurisdiksiyasi ostidagi joylarda yetkaziladi.

Tushuncha o'z ichida ikki mustaqil qismni o'z ichiga oladi: "transchegaraviy zarar" va mazkur zarardan "kelib chiqadigan majburiyat". Zarar davlat chegarasini kesib o'tuvchi, bevosita fuqarolarning sog'lig'iga yoki atrof-muhitga jiddiy zarar yetkazuvchi ta'sir sifatida ta'riflanadi.

3.2. Transchegaraviy zararning to'rtta asosiy elementi

Biron-bir harakat yoki voqea transchegaraviy zarar sifatida tan olinishi uchun quyidagi to'rtta element mavjud bo'lishi zarur:

Birinchi element — faoliyat va zarar o'rtasida sababiy bog'liqlikning mavjudligi. Amalga oshirilgan harakat bilan yuzaga kelgan zarar o'rtasida jismoniy bog'liqlik bo'lishi shart. Chegaradosh hududda joylashgan zavod zararli gazlar chiqarishi natijasida qo'shni davlatga zarar yetkazilishi bunday bog'liqlikning tipik namunasidir.

Ikkinchi element — inson (antropogen) omilining mavjudligi. Xalqaro huquqda javobgarlik faqat insonning harakati bilan bog'liq holatlarda yuzaga keladi. Zilzilalar, suv toshqinlari va boshqa tabiiy ofatlar "Xudoning irodasi" (acts of God) sifatida baholanib, odatda fors-major sharti asosida javobgarlikdan ozod etiladi.

Uchinchi element — zarar darajasining yetarlicha og'ir bo'lishi. Xalqaro huquq faqat sezilarli darajadagi zararni hisobga oladi. Turli xalqaro shartnomalar "jiddiy", "ahamiyatli", "sezilarli" kabi atamalarni qo'llasa-da, aniq miqdoriy mezon belgilanmagan. Bu masala xalqaro huquqiy muhokama doirasida qolmoqda.

To'rtinchi element — zararning bir davlatdan boshqa davlatga o'tishi. Bu transchegaraviy zararning asosiy belgilantiruvchi xususiyati bo'lib, zarar manbasining bir davlatda, oqibatning esa boshqa davlatda ro'y berishi zarur.

IV. TRANSCHEGARAVIY ZARAR HUQUQINING TARIXIY SHAKLLANISHI

4.1. Sanoat inqilobidan zamonaviy davrga qadar

Transchegaraviy zarar tushunchasining shakllanishi XVIII asrdagi sanoat inqilobi bilan bevosita bog'liqdir. Sanoat korxonalari faoliyati natijasida havoga, suv va yer resurslariga o'ta nazoratsiz tarzda chiqarilgan zararli moddalar ko'pincha bir davlat hududi bilan cheklanmay, qo'shni davlatlar hududigacha yetib bordi va ekologik zarar "transchegaraviy" tus oldi.

Bu davrda davlat suvereniteti va hududiy yaxlitlik tamoyillari mutlaqo ustunlik qilgan bo'lib, bir davlatning boshqa davlat ichidagi zararni qoplash majburiyati deyarli tan olinmagan edi. Faqat XIX

asrning oxiri va XX asrning boshlarida xalqaro ekologik huquqning ilk normativ asoslari shakllana boshladi.

4.2. Trail Smelter arbitraj ishi — fundamental pretsedent

Transchegaraviy zarar huquqining huquqiy shakllanishida eng muhim dastlabki bosqich sifatida 1938–1941-yillardagi Trail Smelter arbitraj ishi (AQSh v. Kanada) e'tirof etiladi. Kanadaning Britaniya Kolumbiyasi shtatidagi Trail shahrida joylashgan Consolidated Mining and Smelting Company Limited zavodi mis, qo'rg'oshin va rux eritish jarayonida hosil bo'lgan oltingugurt dioksid gazini havoga chiqargan.

Birinchi jahon urushi davrida kuniga 30 tonna bo'lgan bu gazning miqdori 1930-yilga kelib kuniga 300–350 tonnaga yetdi. Ushbu zaharli gazlar Vashington shtati hududiga tarqalib, yerlar, daraxtlar, ekinlar va mol-mulkka zarar yetkazdi. 1932-yildan 1937-yilgacha bo'lgan davrdagi zarar kamida 78 000 AQSh dollari miqdorida baholandi.

Arbitraj tribunali ushbu nizoni ko'rib chiqib, "hech bir davlat o'z hududini boshqa davlat hududiga zarar yetkazadigan tarzda ishlatishga ruxsat bermasligi kerak" degan prinsipni xalqaro huquqdagi fundamental tamoyil sifatida mustahkamladi. Bu qaror "zarar yetkazmaslik" (no-harm rule) prinsipining rasmiy xalqaro e'tirof etilishiga turtki bo'ldi.

4.3. BMT va xalqaro konvensiyalar orqali normativlashtirish

Trail Smelter pretsedentidan so'ng xalqaro hamjamiyat bu sohadagi huquqiy normalarni mustahkamlashga kirishdi. BMT tomonidan 2001-yilda qabul qilingan "Xavfli faoliyatlar natijasida yuzaga keladigan transchegaraviy zararlarning oldini olish to'g'risida"gi konvensiya transchegaraviy zarar tushunchasiga rasmiy ta'rif berdi.

1992-yil 17-martda Helsinkida qabul qilingan "Transchegaraviy suv oqimlari va xalqaro ko'llarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi konvensiya esa ikki yoki undan ortiq davlatlar o'rtasidagi chegara bo'ylab oqadigan barcha yer usti yoki yer osti suvlarini transchegaraviy suvlar deb belgilab, ularga oid nizolarni tartibga soldi.

1963-yilgi Yadroviy qurol sinovlarini qisman taqiqlash to'g'risidagi shartnoma (Partial Test Ban Treaty) atmosfera, ochiq kosmos va suv ostida yadroviy sinovlar o'tkazilishini rasman taqiqlab, yadroviy transchegaraviy zararlar oldini olishda muhim huquqiy asos bo'ldi.

V. TRANSCHEGARAVIY ZARAR TURLARI

5.1. Ehtiyotsizlik orqasidan yetkazilgan (tasodifiy) zarar

Tasodifiy transchegaraviy zararlar kutilmagan tarzda yoki birdan yuzaga kelgan hodisa natijasida vujudga keladi. Bu turdagi zararlar odatda ultra-xavfli faoliyatlar bilan bog'liq bo'lib, yadroviy, kosmik, neft tashish va kimyoviy faoliyatlarni o'z ichiga oladi.

Yadroviy faoliyat sohasidagi eng katastrofik tasodifiy zarar 1986-yil 26-aprelda sodir bo'lgan Chernobil atom elektr stansiyasi falokati hisoblanadi. To'rt reaktordagi kimyoviy portlash natijasida taxminan 50 million Kyuri radioaktiv chiqindi atmosferaga tarqaldi. Bu miqdor bir vaqtda 500 ta atom bombasining portlashidan hosil bo'ladigan radioaktivlik darajasiga tengdir. Taxminan 9 million kishi bevosita yoki bilvosita ushbu falokatdan jabrlandi, 350 000 nafar odam uylarini tark etishga majbur bo'ldi. Radiatsiya ko'plab Yevropa davlatlarida aniqlangan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari keng miqyosda zararlangan.

Kosmik faoliyat sohasidagi tasodifiy zarar misolida Sovet Ittifoqining yadro quvvatida ishlovchi "Kosmos 954" sun'iy yo'ldoshining 1978-yil 24-yanvarda nazoratdan chiqib, Kanada hududiga qulab tushishi holati ko'rsatilishi mumkin. Sun'iy yo'ldosh parchalanib, 50 000 kvadrat kilometr hududga radioaktiv materiallar sochilib ketdi. Kanada 1972-yilgi Kosmik obyektlar javobgarligi to'g'risidagi konvensiya asosida sobiq Sovet Ittifoqidan 14 million AQSh dollari miqdorida tovon talab qildi.

Dengiz orqali neft tashish sohasida 1967-yildagi Torrey Canyon va 1978-yildagi Amoco Cadiz supertankerlarining halokatli neft to'kilishi hodisalari xalqaro huquqda muhim o'rin tutadi. Amoco Cadiz

tankerining 230 000 tonnalik xom neft yukini dengizga to'kishi tarixdagi eng yirik neft ifloslanishi falokati sifatida qayd etildi. Bu avariya Fransiyaga tozalash va kompensatsiya xarajatlari uchun 370 million fransuz frankiga tushdi.

5.2. Qasddan qilingan harakat yoki harakatsizlik natijasida yuzaga kelgan zarar

Bu turdagi zararlar asta-sekin, uzluksiz yoki takroriy harakatlar orqali shakllanuvchi salbiy ekologik oqibatlar bilan tavsiflanadi. Asosiy ko'rinishlari uchta: atmosfera (havo) ifloslanishi, suv resurslarining ifloslanishi va tuproqning zararlanishi.

Havoning ifloslanishi — sanoat korxonalarining doimiy ravishda havoga zararli gazlar va chiqindilar chiqarishi orqali yuzaga keladigan transchegaraviy zarar. Trail Smelter ishi aynan shu kategoriyaga kiradi va bu turdagi zararlarning huquqiy asosi sifatida xizmat qiladi. Shu jumladan, Tojikiston Alyuminiy zavodi (TALKO) tomonidan qo'shni respublikalar ekologiyasiga yetkazilayotgan zarar ham shu kategoriyaga kirishini ilmiy adabiyotlar tasdiqlaydi.

Suv resurslarining ifloslanishi — daryolar, ko'llar yoki yer osti suvlariga muntazam ravishda chiqindi, kimyoviy moddalar yoki og'ir metallar tashlash natijasida yuzaga keladigan transchegaraviy zarar. Transchegaraviy daryolar bo'yicha nizolarda yuqori oqimdagi davlatning faoliyati past oqimdagi davlatga salbiy ta'sir ko'rsatganda bu kategoriyaga mansub bo'ladi.

Xalqaro huquqda bunday zararlar uchun davlatlarga "yetarli ehtiyot choralarini ko'rish" (due diligence), "zararning oldini olish" (prevention) va "xabardor qilish" (notification) kabi asosiy protsessual majburiyatlar yuklatiladi.

VI. TRANSCHEGARAVIY ZARAR YETKAZISHDAN KELIB CHIQADIGAN MAJBURIYATNING HUQUQIY MOHIYATI

6.1. Delikt majburiyat sifatida huquqiy tavsifi

Transchegaraviy zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyat o'z tabiatiga ko'ra shartnomaga asoslanmagan — delikt majburiyat hisoblanadi. Rim huquqidan kelib chiqqan ushbu tushuncha lotincha "delictum" atamasidan olinib, g'ayriqonuniy harakatni anglatadi. Zamonaviy fuqarolik huquqida majburiyatlar shartnomaviy va shartnomadan tashqari (delikt) majburiyatlarga bo'linadi.

Huquqshunos olim T.O. Xazratqulovning ta'kidlashicha, delikt majburiyatlar noqonuniy harakat (yoki harakatsizlik), zarar yetkazilishi va sababiy bog'liqlikning uch asosiy elementi mavjud bo'lganda yuzaga keladi. Aynan transchegaraviy zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlarda ham mana shu uch element majburiy ravishda bo'lishi lozim.

Akademik X.R. Rahmonqulov ta'riflaganidek, shartnomasiz majburiyatlar alohida turkum sifatida e'tirof etilib, deliktlarni huquqni muhofaza qilishdan kelib chiqadigan majburiyatlar turkumiga kiradi. Shu nuqtai nazardan, transchegaraviy zarar yetkazgan subyekt zarardor (qarzdor), zarar ko'rgan davlat yoki uning fuqarolari esa kreditor maqomida bo'ladi.

6.2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi doirasida tahlil

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 985-moddasi mazmuniga ko'ra, g'ayriqonuniy harakat (harakatsizlik) tufayli fuqaroning shaxsiga yoki mol-mulkiga, shuningdek yuridik shaxsga yetkazilgan zarar, boy berilgan foyda bilan birga zararni yetkazgan shaxs tomonidan to'liq hajmda qoplanishi lozim.

Mazkur norma transchegaraviy zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan subyektning ushbu zarar uchun to'liq hajmda javobgar bo'lishi majburiyatini va zarar ko'rgan chegaraoldi davlat yoki uning fuqarolari tomonidan yetkazilgan zararning qoplanishini talab qilish huquqini kafolatlaydi.

Fuqarolik kodeksining 999-moddasi esa faoliyati tevarak-atrofdagilarga oshiqcha xavf tug'diradigan yuridik va jismoniy shaxslarning ushbu xavf manbai keltirib chiqargan zarar uchun javobgarligini tartibga soladi. Ular faqat zarar bartaraf qilib bo'lmaydigan kuch (fors-major) yoki jabrlanuvchining qasddan qilgan harakati oqibatida yuzaga kelganini isbotlagan taqdirdagina javobgarlikdan ozod etilishi mumkin. Aks holda zarar to'liq qoplanishi shart.

Trail Smelter nizosini O'zbekiston qonunchiligi nuqtai nazaridan baholasak: Kanadaning Trail Smelter zavodi tomonidan amalga oshirilgan xo'jalik faoliyati natijasida qo'shni davlat hududida yashovchi jismoniy shaxslarga va atrof-muhitga yetkazilgan zarar uchun ushbu korxona to'liq hajmda javobgar subyekt sifatida e'tirof etilishi lozim bo'lar edi. Bu milliy va xalqaro huquq normalari o'rtasidagi uyg'unlikni namoyon etadi.

6.3. Xalqaro delikt javobgarligining universal asosi

Delikt majburiyatlari milliy fuqarolik qonunchiligi doirasida nazarda tutilgan bo'lsa-da, transchegaraviy holatlarda ular xalqaro huquq normalari, odat huquqi, xalqaro bitimlar va ekologik konvensiyalar bilan tartibga solinadi. "Zarar yetkazmaslik" (no-harm rule) tamoyili xalqaro delikt javobgarligining universal asosini tashkil etadi.

Ushbu tamoyilga ko'ra, hech bir davlat o'z hududida olib borilayotgan faoliyat orqali boshqa davlatga zarar yetkazmasligi shart. Bunday zarar yetkazilgan taqdirda, javobgar subyektga nisbatan zarar ko'rgan davlat yoki jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan da'vo qo'zg'atilishi huquqi kafolatlanadi.

VII. MUHOKAMA VA HUQUQIY TAVSIYALAR

Tadqiqot natijalari transchegaraviy zarar huquqining bir necha muhim muammolarini ko'rsatib turibdi. Birinchidan, transchegaraviy zarar miqdorini aniqlashning aniq mezonlari xalqaro huquqda hali belgilanmagan. "Sezilarli", "jiddiy", "ahamiyatli" kabi atamalar turlicha talqin qilinishi mumkin bo'lib, bu esa huquqiy belirsizlikka olib keladi.

Ikkinchidan, yuzaga kelgan zararning sababiy bog'liqligini isbotlash amaliy jihatdan murakkab. Ayniqsa havo va suv ifloslanishi kabi holatlarda ifloslantiruvchi moddalar turli manbalardan kelib chiqishi mumkin bo'lib, aniq subyektni aniqlash qiyin.

Uchinchidan, O'zbekiston milliy qonunchiligi doirasida transchegaraviy zarar masalalariga doir alohida norma yo'q. Fuqarolik kodeksining 985 va 999-moddalari umumiy zarar yetkazish va oshiqcha xavf manbai uchun javobgarlikni tartibga soladi, ammo transchegaraviy o'lchovlarga moslashtirilmagan. Bu borada milliy qonunchiligi takomillashtirish zarur.

To'rtinchidan, xalqaro sud yoki arbitraj organlarida transchegaraviy zararlar bo'yicha da'volarni qo'zg'atish va ko'rib chiqish jarayoni uzoq va murakkab. Davlatlar ko'pincha diplomatic yo'l bilan muzokaralar olib borishni afzal ko'radilar, bu esa jabrlanuvchi tomonning huquqlarini to'liq ta'minlamasligiga olib kelishi mumkin.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi: xalqaro darajada transchegaraviy zarar miqdorini aniqlashning aniq mezonlarini belgilovchi qo'shimcha protokollar ishlab chiqish; milliy qonunchilikda transchegaraviy zararlar bo'yicha alohida normativ tartibga solish mexanizmi joriy etish; zarar yetkazish holatlarida tezkor xabardor qilish va zararni baholash tizimlarini shakllantirish.

VIII. XULOSA

Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatadiki, transchegaraviy zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar o'z tabiatiga ko'ra delikt majburiyatlar sirasiga kirib, ular shartnomaviy munosabatlar mavjud bo'lmagan holatda bir subyekt tomonidan boshqa davlatga yoki uning fuqarolariga yetkazilgan zarar evaziga yuzaga keladigan javobgarlikdir.

Trail Smelter pretsedentidan tortib zamonaviy konvensiyalargacha bo'lgan tarixiy tahlil transchegaraviy zarar huquqining bosqichma-bosqich shakllanib, xalqaro normalarda mustahkamlanib borayotganini ko'rsatadi. Chernobil, Kosmos 954 va Amoco Cadiz kabi falokatlar bu sohadagi huquqiy normalarning zaruriyatini yanada oydinlashtirdi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 985 va 999-moddalari milliy huquqiy asos sifatida xizmat qilsa-da, xalqaro huquq normalari bilan uyg'unlashtirish va transchegaraviy o'lchovlarga

moslashtirish zarur. Zarar yetkazmaslik tamoyilini va due diligence majburiyatlarini milliy qonunchilika to'liq singdirish davlatning xalqaro majburiyatlarini bajarish kafolatini mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytganda, transchegaraviy zarar huquqi xalqaro huquqning eng dinamik rivojlanayotgan sohasidan biri bo'lib, uning to'liq va samarali tartibga solinishi global ekologik xavfsizlik va davlatlararo adolatli munosabatlarni ta'minlashning muhim shartidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xue, H. (2003). Transboundary Damage in International Law (Vol. 27). Cambridge University Press.
2. Willisch, J., Feldsieper, M., Meimberg, R. and Gross, R. (2021). State Responsibility for Technological Damage in International Law (Vol. 97). Duncker & Humblot.
3. Read, J.E. (1963). The Trail Smelter Dispute. Canadian Yearbook of International Law, 1, pp. 213–229.
4. Xazratqulov, T.O. (2023). Delikt majburiyatlarining kollizion masalalari. O'quv qo'llanma. Toshkent: TDYuU.
5. Rahmonqulov, X.R. (2005). Majburiyat huquqi (umumiy qoidalar). Toshkent: TDYU.
6. Sadiqov, O.N. (2006). Grazhdanskoye pravo Rossiyskoy Federatsii. Uchebnik. Tom II. Moskva: Infra-M.
7. BMT Xalqaro Huquq Komissiyasi. (2001). Xavfli faoliyatlar natijasida yuzaga keladigan transchegaraviy zararlarning oldini olish to'g'risidagi qoidalar loyihasi. UN Doc. A/56/10.
8. Convention on the Protection and Use of Transboundary Watercourses and International Lakes. Helsinki, 17 March 1992.
9. Treaty Banning Nuclear Weapon Tests in the Atmosphere, in Outer Space and Under Water. Moscow, 5 August 1963. 480 UNTS 43.
10. Descamps, H., Slabbinck, R. and Bocken, H. (2008). Prevention of Transboundary Harm from Hazardous Activities. International Documents on Environmental Liability, pp. 333–337.
11. Finch, E.R. and Moore, A.L. (1979). The Cosmos 954 Incident and International Space Law. ABA Journal, 65, p. 56.
12. Rosenthal, L. and Raper, C. (1985). Amoco Cadiz and Limitation of Liability for Oil Spill Pollution. Virginia Journal of Natural Resources Law, 5(1), pp. 259–295.
13. Koivurova, T. and Singh, K. (2022). Due Diligence. Max Planck Encyclopedia of Public International Law. Oxford University Press.
14. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. 985-modda va 999-modda. Lex.uz. https://lex.uz/docs/-180552
15. Samatov, I. et al. (2024). Harmful effects of fluorine compounds on agricultural crops. BIO Web of Conferences, Vol. 149. EDP Sciences.
16. Handl, G. and Lutz, R.E. (eds.) (1989). Transferring Hazardous Technologies and Substances. London: Graham & Trotman.